

BROYLER JO‘JALARINI O‘STIRISHDA OZIQLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Yu.A.Ermatov dotsent, **F.Sh. Berdiqulov** assistent,

M.Yo‘ldashev talaba, **D.Ibragimov** assistent

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya. Kichik parrandachilik xo‘jaliklari sharoitida istiqbolli tovuq krosslarining hayotchanligi, mahsulot birligiga ozuqa sarfi, davrlar bo‘yicha oziqlantirishda belgilangan ozuqa miqdorlarini hisobga olish, oziqa ratsionini meyyorlashtirish, bo‘rdoqilanish xususiyatlari va tadqiqotning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘rganish. Ozuqalar tarkibida vitaminlar, makro va mikroelementlar, organizmda sintezlanmaydigan aminokislotalar e‘tiborga olinishi kerak.

Kalit so‘zlar: Broyler, Ross-308, oziqa sarfi, hazmlanish jarayoni, oziqlantirish, me‘yor, davrlar bo‘yicha oziqlantirish, o‘sinh va bo‘rdoqilanish.

ОСОБЕННОСТИ КОРМЛЕНИЯ ПРИ ВЫРАЩИВАНИИ ЦЫПЛЯТ БРОЙЛЕРОВ

М.Йулдашев студент, **Ю.А.Эрматов** доцент,

Ф.Ш.Бердикулов ассистент, **Д.Ибрагимов** ассистент

Самарқандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводство и биотехнологии

Аннотация. Изучить в условиях малых птицефабрик жизнеспособность перспективных кроссов кур, расход кормов на единицу продукции с учетом количества кормов, указанных в кормлении по периодам, нормализация кормового рациона, особенности откорма и экономических показателей исследование. В питании следует учитывать витамины, макро- и микроэлементы, аминокислоты, которые не могут синтезироваться в организме.

Ключевые слова: Бройлер, Росс-308, расход корма, процесс пищеварения, кормление, норма, кормление по периодам, рост и откорм.

FEATURES OF FEEDING WHEN RAISING BROILER CHICKENS

M. Yuldashev student, **Yu. A. Ermatov** associate professor,

F. Sh. Berdikulov assistant, **D. Ibragimov** assistant

*Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and
Biotechnology*

Annotation. *To study, in the conditions of small poultry farms, the viability of promising chicken crosses, feed consumption per unit of production, considering the amount of feed indicated in feeding periods, normalization of feed rations, features of fattening and economic indicators of the study. The diet should consider vitamins, macro- and microelements, amino acids that cannot be synthesized in the body.*

Key words: *Broiler, Ross-308, feed consumption, digestion process, feeding, norm, feeding by periods, growth and fattening.*

Mavzuning dolzarbligi: Parrandachilik mamlakatimiz qishloq xo'jaligining ajralmas bir qismi bo'lib hisoblanadi. Parrandachilikda insonlar uchun zarur bo'lgan parranda go'shti, tuxum va qo'shimcha mahsulotlar olinadi. Bundan tashqari aholi bandligini ta'minlashda parrandachilik sanoat uchun o'rta va kichik biznes, nodavlat xo'jaliklardagi kichik texnologiyalarni faol yuritishda alohida o'rini egallaydi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda sohani rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Nafaqat tadbirkorlar, balki ko'pchilik aholi parranda boqishni yo'lga qo'yib yaxshigina daromad olmoqda. [1].

Mamlakatning oziq-ovqat dasturini hal qilish uchun broyler tovuqlarini yetishtirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tovuq go'shti yuqori biologik va ta'm sifatlariga ega. Broyler tovuqlarini sanoat asosida yetishtirish iqtisodiy jihatdan foydalidir. [2].

Ma'lumotlariga qaraganda "Ross-308" go'shtdor tovuq krossining otalik va onalik shakllari jo'jalarini o'stirish texnologiyasi va tajribada olingan natijalar keltirilgan. Ushbu krossga xos bo'lgan genetik potentsiali ishlab chiqarilgan omixta yem retseptlari asosida oziqlantirilganda jo'jalarning tirik vazni va saqlanishi yuqori darajada namoyon bo'lgan. [4].

Materiallar va metodika. Tadqiqot ishlari Qoraqalpog'iston Respublikasi Amudaryo tumanida joylashgan "O'rta qala chorvadori agro ferma" xo'jaligida olib borilgan. Tajribaga "Ross-308" tovuq krosslari 50 boshdan 1 ta tajriba 1 ta nazorat guruhlari shakllantirildi. Har ikkala guruhdagi broyler jo'jalarini o'stirish, bo'rdoqilash va oziqlantirishda uslubimizda ko'rsatilgan bo'yicha barcha zoogigienik me'yorlar yaratilib berildi. Tajriba polda qalin to'shamali yuzada o'tkazildi. Broyler jo'jalarini har haftalik yoshida 1g. aniqlikdagi tarozida tortib, tirik vazni aniqlandi. Oziqlantirish xususiyatlari tajriba guruhiga belgilangan ratsion me'yori asosida oziqlantirildi. Krosslarning kompaniya taqdim etgan standart andozasiga qarab jo'jalarning holati va tajribaning iqtisodiy ko'rsatkichlari o'rganilib, olingan ma'lumotlar Microsoft Office Excel 2007 dasturi yordamida qayta ishlangan (N.A. Ploxinskiy 1969 yilga ko'ra).

Tadqiqot natijalari.

Shu bilan birga, yosh jo'jalarni bir kunlik yoshdan 10-14 kunlik yoshigacha boshlang'ich (start) omuxta yemi bilan (minimum 300 g.gacha), 15-28 kunlik yoshida o'sish (rost) omuxta yemi bilan (minimum 900 g.gacha) oziqlantiriladi. Standart tirik vaznga erishsa, cheklangan ovqatlanishga o'tkaziladi va qolgan bo'rdoqilash davrida (finish) omuxta yemi bilan (normallashtirilgan) oziqlantirish rejimi asosida oziqlantiriladi. Dastlabki 4 hafta ichida zarracha hajmi 1,0-1,5 mm bo'lgan don shaklida aralash ozuqadan foydalanish tavsiya etiladi.

Jo'jalarni o'stirishning birinchi 10 kunligida juda ham extiyotkorlik bilan oziqlantirish kerak. Oziqa tarkibida broyler jo'jalarini organezmida to'liq biokimyoviy jarayonlarni kechishi uchun vitaminlar, makro va mikroelementlar, organezmida sintezlanmaydigan aminokislotalar e'tiborga olinishi muhim hisoblanadi. O'tkazilgan tajribalarni natijalariga ko'ra, broyler jo'jalarini makiyonlariga nisbatan xo'rozlarini kunlik o'sishi va tirik vazni yuqori bo'ldi. Bu esa ota - onalik shaklida ishtirok etgan go'sht yo'nalishdagi nasldor parrandalarning genetik potensialiga bog'liq bo'lib, nasl belgilarini o'tkaza olishida. Tajribamizdagi broyler jo'jalarini fiziologik jihatdan yetilishini kuzatib, makiyonlariga nisbatan, xo'rozlarini yetilishi, kunlik va tirik vazni jihatdan 6 - 10 % ga yuqori bo'lib, 0,6 - 0,9 % gacha oziqa kam sarflandi.

Jo'jalarni o'stirishning uchinchi fazasida jo'jalar kuchli o'sish va bo'rdoqilanish holatida va fiziologik jihatdan arganezmida moddalar almashinuvi jadal bo'ldi. Ozuqalar tarkibida vitaminlar, makro va mikroelementlar, organezmida sintezlanmaydigan aminokislotalar e'tiborga olinish kerak. Chunki turli moddalarni organezmga yetishmovchiligi oqibatida turli holatdagi Avitaminoz va kasalliklar vujudga kelishi mumkin.

1-jadval

Broyler jo'jalarining tirik vazni g.(n-50)

Broyler jo'jalarining yoshi (kun)	I-Tajriba guruhi		II-Nazorat guruhi		Kunlik o'sishi bo'yicha guruhlar farqi
	M±m	Cv%	M±m	Cv%	
1	45,76±0,36	5,70	44,94±0,45	7,18	
1 – 7	205,5±0,48	1,65	203,9±0,13	0,44	1,6
7 – 14	594,9±0,7	0,8	593,7±0,84	1,0	1,2
14 – 21	1063,9±0,98	0,69	1061,3±1,1	0,75	2,6
21 – 28	1762,2±0,92	0,46	1751,1±0,99	0,39	11,1
28 – 35	2402,5±0,62	0,2	2384,5±0,53	0,19	18,0
35 – 42	2982,3±0,99	0,23	2886,5±0,99	0,25	95,8

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tajribadagi broyler jo'jalarini davrlar bo'yicha me'yorlashtirib tuzilgan ratsion asosida oziqlantirish evaziga o'sish ko'rsatkichlari tajriba guruhi broyler jo'jalarida nazoraat guruhi jo'jalariga nisbatan

tirik vazn ko'rsatkichlari haftalik yoshlari bo'yicha 1,6;1,2;2,6;11,1;18,0 va 95,8 g. ga ustunlik qilib, oxirgi haftalik yoshida biroz farq kuzatildi. Bu ko'rsatkichlar krossning me'yoriy o'sish xususiyatlariga mos keladi.

Xulosalar: Olib borilgan o'rganishlar natijasida broyler jo'jalarini o'sish, rivojlanish va bo'rdoqilanish xususiyatlari oziqlantirishning turli fazalarida kross talabalari bo'yicha belgilangan miqdorda oziqlantirish, organezmda almashinuvchi energiya, xom protein, xom yog' va aminokislotalarni sentizini bir me'yorda borishi bilan mahsuldorlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir qilishi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5046 sonli qarori "Parrandachilikni rivojlantirish va tarmoq oziqa bazasini mustahkamlashga qaratilgan qo'shimcha choratadbirlar to'g'risidagi" 2021 yil 14 iyun.

2. Лопаева Н.Л. Краткий курс лекций по птицеводству. Екатеринбург, 2012

3.А.Л. Сидорова. Технология производства яиц и мяса птицы на промышленной основе. Красноярск 2009

4. Azimov S.G., Azimov D., Alimov X, Hoshimov B. Технология выращивания ремонтного молодняка мясного кросса «Ross-308». Zooveterinariya 2011y 33-34c

5. Xamraqulov R va boshqalar. "Broyler jujalarni mikro iqlim sharoiti" Agroilm-O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali.2013yil № 3

6. Ermatov Yu.A Fermer, dehqon va oila xo'jaliklarida broyler go'shti ishlab chiqarish. 2007 y.

7. Elmuratotovna, S. F., Shavkatovich, B. F., & Amirovich, E. Y. Incubation Quality of Eggs of Different Category of Cross Lohmann Lsl-classic. JournalNX, 286-290.

8. Elmuratotovna, S. F., Shavkatovich, B. F., & Amirovich, E. Y. Egg Productivity of Chickens of Imported Crosses. JournalNX, 388-392.

9. Қўзиев, И. Қ., Файзуллаев, О. Б., Тўхтаев, О. Б., & Бойматов, О. С. (2022). ОЗУҚА БАЗАСИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА СЕНАЖ ТАЙЁРЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ. АГРОБИОТЕХНОЛОГИЯ ВА ВЕТЕРИНАРИЯ ТИВВИЙОТИ ИЛМИЙ JURNALI, 844-847.

10. Қўзиев, И. Қ., Файзуллаев, О. Б., Тўхтаев, О. Б., & Бойматов, О. С. (2022). ОЗУҚА БАЗАСИНИ МУСТАҲКАМЛАШДА СЕНАЖ ТАЙЁРЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ. АГРОБИОТЕХНОЛОГИЯ ВА ВЕТЕРИНАРИЯ ТИВВИЙОТИ ИЛМИЙ JURNALI, 844-847.